

## NIGELLA SATIVANING FOYDALI XUSUSIYATLARI

**Abduxalilova Madinaxon Abdurayim qizi**

*Andijon davlat pedagogika instituti, Aniq va tabiiy fanlar fakulteti, biologiya yo'nalishi ikkinchi bosqich talabasi E-mail: madinaxonabduxalilova@mail.ru*

**Annotation:** *Ushbu maqolada ilmiy tibbiyotda hamda xalq tabobatida keng qo'llanilib kelinayotgan, foydali xususiyatlarga nihoyatda boy bo'lgan o'simlik dorivor ekma sedananing biologik xususiyatlari hamda shifobaxshligi haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Nigella sativa, ranunculaceae, alkaloidlar, steroidlar, katarakta, so'gal, astma.*

**Абстрактный:** В данной статье рассказывается о биологических свойствах и лечебных свойствах лекарственного растения седана, которое широко используется в научной медицине и народной медицине и чрезвычайно богато полезными свойствами.

**Ключевые слова:** *Nigella sativa, ranunculaceae, алкалоиды, стероиды, катаракта, согал, астма.*

**Abstract:** This article talks about the biological properties and medicinal properties of the medicinal plant sedana, which is widely used in scientific medicine and folk medicine, and is extremely rich in useful properties.

**Keywords:** *Nigella sativa, ranunculaceae, alkaloids, steroids, cataracts, sogal, asthma.*

Ekma sedana - *Nigella Sativa L.* ayiqtovondoshlar — Ranunculaceae oilasiga kiradi. Bir yillik, bo'yi 20-75 sm ga etadigan o't o'simlik. Poyasi shoxlangan, poya va shoxlarinmg uchi yakka xoldagi gul bilan tugavdi. Pastki barglari qisqa bandli, yuqoridagilari bandsiz poya va shoxlarida ketma-ket joylashgan. Hamma barglari keng chiziqsimon, to'mtoq yoki o'tkir uchli bo'lakchalarga ikki-uch marta patsimon qirqilgan. Gulkosacha barglari 5 ta, zangori rangli, cho'ziq yoki tuxumsimon cho'ziq, uchi to'mtoq; gultojbargiari 5-8 ta, ikki labli, kosachabarglaridan uch marta kalta.\

Mevasi - ko'p urug'li bargchalardan tashkil topgan to'p meva. Urug'i uch qirrali, burishgan, och-qo'ng'ir rangli. May-iyunda gullaydi va mevasi yetiladi.

O'simlik asosan O'rta Osiyo, Rossiyaning Yevropa qismining janubida va Kavkazda ekin ekiladigan yerlarda yovvoyilashgan holda uchraydi. Ekinzorlarda o'stiriladi.

Yer ustki qismi tarkibida vitamin S, kumarinlar, flavonoidlar (kempferol va kversetin glikozidlari), urug'ida - 0,46-1,4% efir moyi, steroidlar, triterpen saponinlar, alkaloidlar, xinonlar, kumarinlar, 30,8-4,2% yog' va boshqa moddalar bor.

Sedana ziravor o'simlik sifatida ekiladi. Urug'i ochiq maydonlarga erta bahorda sepiladi. Ekma sedana (*Nigella Sativa L.*) quyoshli joylarda yaxshi o'sadi. Oshxonada foydalanishdan tashqari, urug' boshoqlari ko'pincha gullar aranjirovkalarida ham

ishlatiladi. Shuning uchun Ekma sedana (*Nigella sativa L.*) ni manzarali bog' uchun xam o'stirish mumkin masalan, maxsus idishlarda, verandada ham o'simlik ham bezak uchun, chegaralarda, yotoqlarda, qirg'oq va yozgi bog'larda. Dorivorlik xususiyatlari. Sedana shish paytida siyishni kuchaytirish, safro va balg'amni ajratish uchun ishlatiladi. Mevalar safro va siydik yo'llari kasalliklarida va o'simliklardan olingan boshqa dorilar bilan birgalikda -gepatit, asab tizimining funktsional buzilishlari, yurak-qon tomir tizimining ayrim kasalliklari (angina, pektoris va boshqalar) uchun ishlatiladi. Biologik faol moddalar o'simlikning hayoti davomida ishlab chiqariladi va uning o'ziga xos organlarida to'planadi.

Inson tanasiga ta'sir ko'rsatadigan holda, ular ma'lum bir fiziologik va farmakologik ta'sirga ega, bemorda u yoki bu patologik jarayonni tiklash va normalizatsiya qilish, uning umumiyligi qarshiligidan oshirish va bemorni normal hayotga qaytarish qobiliyatiga ega

Ibn Sino sedana bilan so'gallami, temiratki, husnbuzar, pes (vitiligo) va boshqa teri kasalliklarini davolagan, shishlami qaytargan, yara va yarali traxomani, ko'z kataraktasini va boshqa kasalliklarni davolashda foydalangan.

Urug'in qaynatmasi buyrak va siydik qopida tosh paydo bo'lganida uni tushurish, to'xtab qolgan hayzni keltirish, gjjalami o'ldirib tushirish uchun iste'mol qilinadi, tish og'rig'ida og'iz chayiladi. Xalq tabobatida sedana urug'i siydik va el haydovchi, gjjalami organizmdan tushimvchi vosita sifatida hamda yo'tal, astma va sariq kasallikni davolash uchun ishlatiladi.

*Nigella sativa* o'simligi o'zining dorivorlik xususiyatlari bilan inson hayotida muhim o'rinni tutishi bilan bir qatorda, oziq-ovqat mahsulotlariga xushbo'y ta'm berish uchun ham ishlatilishi bilan diqqatga sazovordir. Mazkur o'simlik ushbu xususiyatlari bilan bir qatorda yana ko'plab foydali xususiyatlarga ega, o'simlik turlarini kamayib ketishini oldini olish uchun mazkur o'simlikka nisbatan ehtiyyotkorona munosabatda bo'lish muhim hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- [1]. Ahmedov O', Ergashev.A, Abzalov A. va boshqalar. Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiya. Toshkent. Tafakkur-bo'stoni.2018. B 210-211.
- [2]. Ahmad A, Husain A, Mujeeb M, Alam SK, Najmi AK, Damanhouri ZA, et al. A review on therapeutic potential of *Nigella sativa*: A miracle herb. Asian Pac J Trop Biomed 2013; 3(5): 337-352
- [3]. Al-Jassir MS. Chemical composition and microflora of black cumin(*Nigella sativa L.*) seeds growing in Saudi Arabia. Food Chem 1992; 45:239-242.
- [4].Mehta BK, Pandit V, Gupta M. New principles from seeds of *Nigella sativa*. Nat Prod Res 2009; 23(2):138-48.

[5].Al-Ali A, Alkhawajah AA, Randhawa MA, Shaikh NA. Oral and intraperitoneal LD50 of thymoquinone, an active principle of *Nigella sativa*, in mice and rats. J Ayub Med Coll Abbottabad. 2008; 20(2):25-27.